



USTA OLIM KOMILOV HAYOTI VA IJODI

Yoqubov Sanjar

Termez ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7697682>

Annotatsiya:

Usta Olim Komilov (1875.y Marg'ilon — 1953.y Toshkent) — sozanda (nog'ora, chang), milliy kuy, usul va raqslar bilimdoni, pedagog, o'zbek sahnaviy raqs san'atining asoschilaridan.

Kalit so'zlar: ("Zang", "Gul o'yin", "Sadr", "Daromadi gul o'yin" va h. k.), yangi "Pilla", M. Turg'unboyeva bilan "Paxta", o'zi "Tantana' raqslarini yaratgan. "Farhod va Shirin" (Xurshid pyesasi; V. Uspenskiy, G. Mushel musiqasi), "Gulsara" (Komil Yashin, M. Muhamedov; R. Glier) spektakllariga raqslar sahnalashtirgan, "Paxta" (N. Roslavets, 1933), "Shohida" baletlarini sahnalashtirishda qatnashgan.

Usta Olim Komilov (1875.y Marg'ilon — 1953.y Toshkent) — sozanda (nog'ora, chang), milliy kuy, usul va raqslar bilimdoni, pedagog, o'zbek sahnaviy raqs san'atining asoschilaridan. Mehnat Qahramoni (1932), O'zbekiston xalq artisti (1937). Marg'ilonda Masaid otadan doira chalishni o'rgangan. Dastlab Marg'ilon yallachilari, sozandalarga jo'rnavozlik qilib, to'y, sayil, keyinchalik choyxonalarda xizmat qilgan. O'zbek davlat konsertetnografik truppasi (1929yildan O'zbek davlat musiqali teatri, 1939yildan O'zbek davlat opera va balet teatri)da doirachi; raqs studiyasida dars bergan (1926-43).

U.O. o'zbek raqs san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan. U to'plagan va o'zi yaratgan o'zbek raqsi usullari raqqosalar uchun asosiy qo'llanma bo'lib qoldi. U.O. Tamaraxonim va M. Turg'unboyeva kabi raqqosalar ustozidir. Tamaraxonim bilan ijodiy hamkorlikda qad. O'zbek raqslarini sahnalashtirgan, ularning ayrimlarini raqqosalar ansambli ijrosiga moslashtirgan ("Zang", "Gul o'yin", "Sadr",

"Daromadi gul o'yin" va h. k.), yangi "Pilla",

M. Turg'unboyeva bilan "Paxta", o'zi "Tantana' raqslarini yaratgan. "Farhod va Shirin" (Xurshid pyesasi; V. Uspenskiy, G.

Mushel musiqasi), "Gulsara" (Komil Yashin, M. Muhamedov; R. Glier) spektakllariga raqslar sahnalashtirgan, "Paxta" (N. Roslavets, 1933), "Shohida" baletlarini sahnalashtirishda qatnashgan.

U.O. ijrosidagi xalq doira usullarining ko'pi

l. Akbarov ("Doyra usullari", T., 1952), V. Uspenskiy, Ye. Romanovskayalar tomonidan yozib olingan. U.O.ning ijro uslubi zarblar jilvadorligi hamda tembr





vositalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. T. Inog'omov, K. Azimov, A. To'ychiyev va boshqa doirachilarga ustozlik qilgan.

Moskvada o'tkazilgan milliy teatrlar olimpiadasi (1930),Uzbek san'ati dekadasi (1937) qatnashchisi (dekadada,

ijro etilgan "Sayil va kolxoz to'yi" inssenirovkasining yaratuvchilaridan).

U.O. doiraning boy ifoda imkoniyatlarini Chet mamlakatlarda ham namoyish qilgan. Tamaraxonim va boshqa bilan birinchi xalqaro raqs festivalida g'oliblikka erishgan (London,1935) va uning kaftlaridan olingan gips nusxa Angliya muzeyida saqlanadi.

Farg'onadagi 1-musiqa maktabi, Toshkent va Marg'ilondagi ko'chalardan biriga Usta Olim Komilov nomi berilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. D. Islomov Maxsus cholg'u 2019.
2. Obidov T.,U. Olim Komilov, 1958.

